JIZZAX VILOYATI PAXTAKOR TUMANI HOKIMI
QARORI

2022 - yil 17 - noyabr 326-3-52-Q/22 Paxtakor tuman hokimligi

4r35 “Jizzax-Gagarin” avtomobil yo‘lining Paxtakor tuman hududidan o‘tuvchi qismiga yo‘l belgisi o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari” talablari ijrosi yuzasidan, tuman obodonlashtirish boshqarmasining 2022-yil 19-oktabrdagi 199-sonli hamda Paxtakor tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 2022-yil 26-oktabrdagi 177-sonli xatlarini inobatga olib “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 5-, 6-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman obodonlashtirish boshqarmasining 2022-yil 19-oktabrdagi 199-sonli hamda Paxtakor tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 2022-yil 26-oktabrdagi 177-sonli xatlari inobatga olinsin.

2. 4r35 “Jizzax sh. -Paxtakor sh. -Do‘stlik sh. -Gagarin sh.” M39 (918 km.) avtomobil yo‘lining Paxtakor tuman hududidan o‘tuvchi qismi PK:33+100 km. va PK:33+200 km. qismida ta’sir doirasi 300 m. bo‘lgan 3.27 “To‘xtash ta’qiqlanadi” yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Tuman ichki ishlar bo‘limi (E.Axmedov) va IIB YHXB (A.Ashurov)larga Paxtakor 4r35 “Jizzax sh. -Paxtakor sh. -Do‘stlik sh. -Gagarin sh.” M39 (918 km.) avtomobillar harakatining o‘zgarishi munosabati bilan piyodalar va avtomobillar harakatini tartibga solish va nazoratga olish vazifalari topshirilsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari

vazifasini bajaruvchi O.Amanov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.b. **A.Ashurov**